| Yog' – moy sanoati korxonalarida soliqlar hisobi va auditi jarayonlarida tahliliy amallardan foydalanish samaradorligini oshirish.....                              | 1327 |
| <b>A'zamova Aziza Olimjon qizi</b>  |      |
| Qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishning xorij tajribasi.....  | 1334 |
| <b>Umirova Gulmira Shodiboy qizi</b>  |      |
| Xalqaro moliya-kredit institutlar bilan hamkorlikning iqtisodiy-huquqiy asoslari .....  | 1343 |
| <b>Qosimov Bobur Sobirovich</b>   |      |
| Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yengil sanoat eksporti diversifikatsiyasining roli va yo'nalishlari.....   | 1347 |
| <b>Otamurodov Shavkat Nusratillayevich, Eshqulova Nasiba Normo'minovna</b>  |      |
| Система раннего предупреждения о снижении финансовой устойчивости предприятия на основе ключевых показателей эффективности (KPI).....                               | 1359 |
| <b>Тажибаева Кизларгул Ажиниязовна</b>  |      |
| Soliq tizimida soliq riskini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uslubiyoti.....  | 1374 |
| <b>Nasimov Ravshanjon Azimovich</b>   |      |
| Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi tahlili va uning xususiyatlari .....  | 1383 |
| <b>Sarimsaqov Doniyor Xomidovich</b>  |      |
| Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faol korxonalar va tashkilotlar tahlili .....  | 1390 |
| <b>Normurodov Alibek Anvar o'g'li</b>   |      |
| Mehnat bozori: rivojlanish tendensiyalarining iqtisodiy-statistik tahlili, baholash va istiqbollari.....  | 1396 |
| <b>Mirzayeva Odina Imomnazar qizi</b>   |      |
| Адаптивная модель антикризисных мероприятий, направленных на повышение эффективности управления активами, оптимизацию затрат и реструктуризацию задолженности ..... | 1402 |
| <b>Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna</b>  |      |
| Xalqaro va ichki turistik bozorlarda o'zbekistonning turistik mahsulotlarini targ'ib qilish mexanizmi .....   | 1409 |
| <b>Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna</b>   |      |
| Tourism infrastructure constraints and service gaps in uzbekistan's visitor economy.....  | 1412 |
| <b>Kurolov Maksud Obitovich, Xamidjonova Moxinur Xayrulla qizi</b>  |      |
| Основные проблемы перехода на МСФО в республике узбекистане .....   | 1419 |
| <b>Махмудов Жамшед Ашрафович</b>  |      |
| Binolar loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslari.....  | 1425 |
| <b>Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.</b>   |      |
| Ayrim ta'lim tizimi bilan bog'liq terminlarning izohli lug'at va etimologik lug'at o'rtasidagi farqi.....   | 1429 |
| <b>Mahbuba Xoliqova Abdimo'min qizi</b>   |      |
| Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliq salohiyatining ahamiyati .....   | 1433 |
| <b>Sharipov Narzullo G'ulomovich</b>  |      |
| Corpus-based framework of english teaching for competency-oriented curriculum design.....   | 1448 |
| <b>Raximova Gulnoza Sharipjanovna</b>   |      |
| Masofaviy ta'lim tizimida matematika fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari .....   | 1454 |
| <b>Ustadjalilova Xurshida Aliyevna</b>  |      |
| Texnologik inqilob va mehnat bozorining transformatsiyasi .....   | 1459 |
| <b>A'zamova Feruza, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich</b>  |      |
| Sifat menejmenti tizimini rivojlantirish asosida uy-joy fondlarini boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.....                                | 1465 |
| <b>Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li</b>  |      |





|  |      |
|--|------|
| O'zbekistonda ekologik turizm: yashil iqtisodiyot rivojini tezlashtiruvchi omil.....   | 1471 |
| <b>Rashidov Saidislom</b>  |      |
| Navoiy viloyatida yirik sanoat monopoliyalarini rivojlantirishning tabiiy-iqtisodiy salohiyati ("Qizilqumsement" AJ misolida).....                         | 1474 |
| <b>Savrieva Madina Xakimovna, Xamroyeva Shaxnoza Ibrohim qizi</b>  |      |
| Eksport-import operatsiyalarida dolzarb muammolar va yechimlar .....   | 1480 |
| <b>Xudayberdiyeva Dilnoza Egamberdiyevna</b>   |      |
| Роль международных финансовых центров в мировой экономике .....  | 1484 |
| <b>Нуритдинова Мафтуна Жахонгировна</b>  |      |
| Measures to enhance the tax mechanism applied to business entities.....  | 1489 |
| <b>Kudiyarov Kishibay, Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich</b>   |      |
| Davlat boshqaruv organlarining xizmat ko'rsatish sohasini samarali tashkil etish orqali kambag'allikni qisqartirish.....                                   | 1495 |
| <b>Asrorov Uchqun Akram o'g'li</b>   |      |
| The role of green logistics in Uzbekistan and international trends.....  | 1499 |
| <b>Turakulova Dildora, Ismoilova Diyora</b>  |      |
| Hududlarda turizm mahallalarning turistik salohiyatini oshirish usullari (Bog'ibaland turizm mahallasi misolida) .....                                     | 1506 |
| <b>Raxmanov Jasur Ubaydulloyevich</b>  |      |
| Human Capital and Artificial Intelligence: Navigating the Future of Work .....   | 1511 |
| <b>Hamrokulov Mirabbos, Karimbergan Karriev</b>  |      |
| Analysis of green economic growth indicators in uzbekistan .....   | 1518 |
| <b>Toshboyev Bekzod Bakhtiyorovich</b>   |      |
| Toshkent viloyati iqtisodiyotida vino turizmning o'rni.....  | 1526 |
| <b>Jalilov Shoxjahon Xolbozor o'g'li</b>   |      |
| O'zbekiston sharoitida qurilish loyihalari materiallari sarfini tahlil qilish va optimallashtirish va ularni iqtisodiy-matematik modelmodellashirish ..... | 1530 |
| <b>Turayeva Mohinur Asliddinovna</b>   |      |
| Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishda dasturiy ta'minot va zamonaviy axborot texnologiyalarning o'rni .....   | 1534 |
| <b>Xodjayeva Mu'tabar Xamidulla qizi, Cho'ponova Gulira'no Doniyor qizi</b>  |      |
| Suv tarkibining "wireless waterlight" qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....                 | 1540 |
| <b>Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov</b>   |      |
| Zamonaviy sharoitda dxsh asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmatlar ko'rsatishning integratsion jarayonlari .....                                | 1546 |
| <b>Ubaydullayeva Vasila Sadullayevna</b>   |      |
| Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarini biznes jarayonidan olingan chiqindilar hisobini takomillashtirish .....                                       | 1549 |
| <b>Valijonov Xasanboy Akbaraliyevich</b>   |      |
| Commercial real estate as a tool for synchronizing economic processes.....   | 1556 |
| <b>Nastassia Chyhryna, Siarhei Liashuk, Allayeva Gulchexra Jalgasovna, Khakimdjanova Surayyo Khabibullayevna</b>   |      |
| Asalarichilik faoliyatini rivojlantirish bosqichlari va istiqbollari .....   | 1563 |
| <b>Shodiyev Murodjon Bakirovich</b>  |      |
| Sug'urta kompaniyalari samaradorligini oshirishga qayta sug'urtaning ta'sirini baholash.....   | 1567 |
| <b>Abirqulova Sohijjamol Normuhammad qizi</b>  |      |
| O'zbekistonda yerga mulkchilik munosabatlarini tartibga solishning amaldagi mexanizmi tahlili.....   | 1572 |
| <b>Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich</b>  |      |
| «Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faoliyatlar natijasida yerlarning degradatsiyasi muammosi: sabablari va yechimlari» .....                                   | 1578 |
| <b>O'ng'arov Hasan G'ayrat o'g'li</b>  |      |



|   |      |
|---|------|
| The methodology for using a PM1-PM10 collection device in Uzbekistan is relevant to the climatic conditions.....                            | 1584 |
| <b>Bakhtiyor Pulatov, Bobur Sadriddinov</b>   |      |
| Gullar yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar: amaliy so'rovnoma asosidagi tahlil .....                             | 1591 |
| <b>Nurmatova Dilola Dilshod qizi</b>  |      |
| Budjet mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratning huquqiy asoslarini takomillashtirish .....  | 1595 |
| <b>Jurayev Nomoz Tursunpulotovich</b>   |      |
| Ishlab chiqarish korxonalarini tashkiliy tuzilmasida logistika xizmati samaradorligini oshirish.....  | 1601 |
| <b>Maxmidov Shirinboy Botirovich</b>  |      |
| Bank xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri va jarayonlarni optimallashtirish.....                               | 1606 |
| <b>Maxsadaliev va Maftuna Toxir qizi</b>  |      |
| The period of emergence of accounting policy and its significance in preparing financial statements.....                                    | 1611 |
| <b>Sayfulloyev Jamshid Qobil o'g'li</b>   |      |
| Raqamli iqtisodiyot sharoitida kompaniyalar boshqaruv darajalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati..... | 1615 |
| <b>To'ychiboyev Nozimjon Soliyevich</b>   |      |
| Qishloq hududlarida qayta tiklanuvchi energiya resurslarining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan samaradorligi.....                   | 1621 |
| <b>Ashurov Azizbek Ergash o'g'li, Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li</b>   |      |
| Qurilish korxonalarini faoliyatida yashil iqtisodiy infratuzilmani raqamlashtirish .....  | 1625 |
| <b>Abdullayev Asliddin Nabi o'g'li</b>  |      |
| Sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari .....  | 1630 |
| <b>Ostonov Muhiddin Bahriddin o'g'li</b>  |      |
| Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash yo'llari .....  | 1637 |
| <b>Normetov Bobur Sharifboyevich</b>  |      |
| Oliy ta'lim xizmatlari bozorida marketing faoliyatini tashkil etish va amalda rivojlantirish asoslari .....                                 | 1642 |
| <b>Yuldashov Isomiddin Sidiqovich</b>   |      |



# OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA AMALDA RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

**Yuldashov Isomiddin Sidiqovich**

Oriental Universitetining akademik  
faoliyat va ilmiy ishlar bo'yicha rektor  
maslahatchisi, i.f.n., dotsent

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada nodavlat oliy ta'lim tizimida marketingning o'rni, oliy ta'lim raqobatbardoshligini oshirishda ta'lim xizmatlari marketingining asosiy vazifalarini belgilash va ularni amalga oshirish yo'llari bayon etilgan. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida mijozlarga yo'naltirilgan marketing faoliyatini tashkil etishning ilmiy-nazariy jihatlarini o'rganilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ilmiy tadqiqot manbalarini o'rganish asosida bir necha tasniflarga bo'linib tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, marketing, marketing xizmati, oliy ta'lim raqobatbardoshligi, marketing faoliyati, ta'lim sifati, kadrlar tayyorlash, ta'lim xizmatlari marketingi, marketing tahlili, statistik tahlil, marketing strategiyalari, marketing so'rovnomalari, raqamli marketing, integratsiya.

**Abstract:** This scientific article describes the role of marketing in the non-state higher education system, the main tasks of educational services marketing in increasing the competitiveness of higher education, and the ways to implement them. The article studies the scientific and theoretical aspects of organizing customer-oriented marketing activities in higher education institutions. Additionally, the factors affecting the competitiveness of higher education institutions are analyzed in several classifications based on the study of scientific research sources.

**Key words:** higher education, marketing, marketing service, higher education competitiveness, marketing activities, educational quality, personnel training, educational services marketing, marketing analysis, statistical analysis, marketing strategies, marketing questionnaires, digital marketing, integration.

**Аннотация:** В данной научной статье изложена роль маркетинга в системе негосударственного высшего образования, определены основные задачи маркетинга образовательных услуг в повышении конкурентоспособности высшего образования и пути их реализации. В статье изучены научно-теоретические аспекты организации маркетинговой деятельности, ориентированной на клиента, в высших учебных заведениях. Также факторы, влияющие на конкурентоспособность вузов, проанализированы по нескольким классификациям на основе изучения научных источников.

**Ключевые слова:** высшее образование, маркетинг, маркетинговая служба, конкурентоспособность высшего образования, маркетинговая деятельность, качество образования, подготовка кадров, маркетинг образовательных услуг, маркетинговый анализ, статистический анализ, маркетинговые стратегии, маркетинговые опросы, цифровой маркетинг, интеграция.

## KIRISH

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan milliy iqtisodiyot qaror topdi. Jamiyat hayotida bozor munosabatlari va bozor iqtisodiyotining amal qilishi haqidagi bilimlarga talab va qiziqish sezilarli darajada oshdi.

Oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarish turli ilmiy-nazariy yondashuvlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab jarayondir. Oliy ta'lim muassasalarining marketing faoliyatini boshqarishga bo'lgan ilmiy yondashuvlarni tizimlashtirish, bugungi kunda O'zbekistonda yuqori darajada shakllanayotgan ta'lim xizmatlari bozorida raqobat muhitini yaratish va uni takomillashtirishda dolzarb vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida Prezidentimiz Sh. M.



Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli<sup>1</sup> “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” va 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli<sup>2</sup> “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi farmonlar imzolandi.

Mamlakatimiz rahbari ushbu farmonlarni qabul qilishdan ko‘zlangan maqsad – oliy ta‘lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tan olinishi va raqobatbardoshligini ta‘minlash bo‘yicha quyidagi tadbirlarni amalga oshirishdan iborat:

- Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta‘lim muassasasini xalqaro e‘tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta oliy ta‘lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o‘rindagi ro‘yxatga kiritish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, bunda mazkur oliy ta‘lim muassasalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

- Oliy ta‘lim muassasalarining O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti o‘shidagi ishtirokini va mamlakat ijobiy xalqaro imidjini shakllantirishdagi rolini oshirish;

- Respublika oliy ta‘lim tizimini xalqaro ta‘lim standartlari bilan uyg‘unlashtirish, ilg‘or xorijiy tajribani chuqur o‘rganish va tahlil qilish asosida ta‘lim dasturlarini jahonda tan olingan standartlar talablariga moslashtirish;

- Ta‘lim to‘liq xorijiy tillarda olib boriladigan yo‘nalishlar, mutaxassisliklar va fakultetlar salmog‘ini oshirib borish;

- Xorijiy fuqarolarni oliy ta‘lim muassasalari tomonidan belgilanadigan tartibda suhbat asosida magistratura va doktoranturaga qabul qilish uchun tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilish;

- Ta‘lim xizmatlari eksportini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni kengaytirish va ularning me‘yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish;

- “Study in Uzbekistan” (“O‘zbekistonda tahsil ol”) loyihasini amalga oshirish, maxsus veb-portal yaratish va uni barcha oliy ta‘lim muassasalari bo‘yicha batafsil, ishonchli ma‘lumotlar bilan to‘ldirib borish;

- Ta‘limda brendlar va ilmiy an‘analar tizimini shakllantirish asosida oliy ta‘lim muassasalarining imidjini oshirish bo‘yicha strategik dasturlar qabul qilish;

- Oliy ta‘lim muassasalararo xalqaro fan olimpiadalarini tashkil etish, qo‘shma ta‘lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlashni kengaytirish, xalqaro konferensiyalar va seminarlar o‘tkazish, ilmiy va ta‘lim loyihalarini amalga oshirish;

- Rivojlangan xorijiy davlatlar OTMLari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan qo‘shma jurnallar, ta‘lim forumlari, rektorlar konferensiyalari va boshqa anjumanlar tashkil etish;

- Oliy ta‘lim muassasalari rasmiy veb-saytlarining Webometrics reytingida egallagan o‘rinlarini yaxshilash, yetakchi tashkilotlar va korxonalarda bitiruvchilarning ishga joylashishi, ta‘lim yo‘nalishlari, ilmiy-texnik salohiyat, infratuzilma, professor-o‘qituvchilar va boshqa ma‘lumotlarni muntazam e‘lon qilish;

- Xorijiy hamkorlikda ta‘lim xizmatlarini yo‘lga qo‘yish uchun mahalliy OTMLar filiallarini tashkil etish va qo‘shma ta‘lim dasturlarini amalga oshirish;

- Xorijiy fuqarolarni O‘zbekiston OTMLarida ta‘lim olishga jalb etish uchun konsalting xizmatlari ko‘rsatishning me‘yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro imidjini yaratishda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, elchixonalar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda zamonaviy PR loyihalarni amalga oshirish;

- Xalqaro moliyaviy institutlar va yetakchi tashkilotlar bilan aloqalarni mustahkamlash, innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash.

Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda oliy ta‘lim muassasalari muhim rol o‘ynaydi. Marketingdan ma‘lumki, bozorda faqat sifatli mahsulotgina g‘alaba qozonadi, raqobatga bardosh bera oladi va unga doimiy talab bo‘ladi. Shunday ekan, bugungi kunda har bir oliy ta‘lim muassasasi oldida turgan dolzarb masalalardan biri — bu marketing faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish va uni takomillashtirish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotda keng tatbiq etishdir.

Avvalo, oliy ta‘lim muassasalarida marketing faoliyatidagi muammolarning vujudga kelishini oldini olish choralarini ko‘rish, mavjud muammolarga bevosita va bilvosita yondashuvlar asosida yechim topish kerak. Bu esa o‘z navbatida OTMning ilmiy salohiyatini va moddiy-texnik bazasining reytingini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur mavzuni chuqur o‘rganish dolzarbligi va ahamiyati shundaki, bugungi kunda jahon miqyosida keng qo‘llanilayotgan nazariy va amaliy tajribalarni o‘rganib, ularni mahalliyashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, ularni yurtimiz oliy ta‘lim muassasalarida qo‘llash orqali O‘zbekiston fan taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekistonda yuqori malakali kadrlar yetishib chiqishiga va O‘zbekiston OTMLarining xalqaro Webometrics reytinglarida munosib o‘rin egallashiga zamin yaratadi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son <https://lex.uz/docs/-3107036>

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son <https://lex.uz/docs/-4545884>



So'nggi 10 yil ichida turli faoliyat sohalari marketingdan foydalanish bilan bog'liq vaziyat shu qadar o'zgardiki, oliy ta'lim muassasalari marketingsiz qanday boshqarilishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin.

20-asrning so'nggi o'n yilligida oliy ta'lim marketingidagi asosiy yutuqlar – universitet mahsuloti, uning iste'molchilari, xaridorlari va maqsadli auditoriyalarini aniqlash, marketing faoliyatiga strategik yondashuv zarurligini anglash va ularning tashkiliy dizaynini shakllantirishdan iborat bo'ldi.

Jahon ilm-fanida ta'lim marketingi metodologiyasi universitetlar faoliyatida an'anaviy va innovatsion marketing yondashuvlarini qo'llash nuqtayi nazaridan olimlar, ijodiy jamoalar va ilmiy maktablarning izlanishlari bilan boyitilgan.

"Marketing faoliyatini boshqarish" atamasi jahon olimlari tomonidan turlicha talqin qilingan. Masalan, P. Doyl tomonidan "Marketing menejmenti" — iste'molchilarning ehtiyojlarini aniqlash va ularni qondirish uchun mo'ljallangan takliflarni ishlab chiqish orqali raqobatchi firmalarning foyda olishiga yordam beruvchi vosita sifatida ta'riflangan.

Marketing faoliyati rivojlanishi davrida unga berilgan ta'riflar yangilanib bormoqda. Bugungi kunda marketing strategiyasi nafaqat korxonalar faoliyatini rivojlantirishda, balki ijtimoiy sohalarda ham qo'llanilmoqda. Ta'lim sohasi ijtimoiy-iqtisodiy tizimning ajralmas qismi hisoblanadi. Ta'lim xizmatlari marketing strategiyasini rivojlantirish va takomillashtirish, sohaga bo'lgan ishonchni va uning samaradorligini oshiradi. Axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ta'lim xizmatlarining zamonaviyligi va tezkorligiga bo'lgan talab ortmoqda. Sohada raqobat kuchaymoqda. Bunday sharoitda ta'lim xizmatlari marketingini va uning strategiyasini takomillashtirishga ehtiyoj yanada ortib boradi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nodavlat oliy ta'limning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan strategiyalar nafaqat kadrlarni tayyorlashga, balki zamonaviy va innovatsion, ya'ni zamon talabiga javob beradigan ta'lim berish usullarini ham bevosita qamrab olmoqchi lozim. Bu borada esa individual choralarni ta'minlab beradigan o'rta yoki qisqa muddatli qarorlar Y. Dikhtl va X. Xershgen tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda bayon etilgan.

Filipp Kotler yondashuviga ko'ra, oliy ta'limda xizmat marketingi — belgilangan maqsadga erishishda maqsadli ta'lim xizmatlari bozorlarida qadriyatlarini erkin ayirboshlashni yo'lga qo'yish uchun ishlab chiqilgan, puxta ta'riflangan dasturlarni tahlil etish, rejalashtirish, bajarish va ularning ijrosini nazorat qilishdan iboratdir.

E. Wagner va J. M. Ferreira tadqiqotlari oliy ta'lim muassasasida raqobatbardosh tomonlarni aniqlash bosqichini ochib beruvchi konseptual modelni ilgari surgan. Unda ta'lim tashkilotlarini boshqaruvchi organlarning raqobatdosh ustunlikni yaratadigan ichki va tashqi omillar aniqlangan. Ushbu tadqiqotning asosiy o'rni — biznes strategiyasi sohasidagi uchta nazariy yondashuvni oliy ta'lim tizimiga moslashtirish bo'lib, asosiy ilmiy yangilik shundan iboratki, oliy ta'lim muassasasi hudud va manfaatdor tomonlar o'rtasida kuchliroq aloqaga ega bo'lgandagina raqobatda ustunlikka erishadi.

Geoffrey, Tim va Mazzarol ilmiy tadqiqotlarida xalqaro bozorlarda ta'lim xizmatlari muassasalari uchun barqaror raqobat ustunligini yaratish va uni qo'llab-quvvatlash uchun muhim bo'lgan modellar ishlab chiqiladi. Ular sanoat iqtisodiyoti va menejment nazariyasi asosida raqobatdosh ustunlik nazariyalarini, xizmatlar marketingiga oid adabiyotlarni o'rganish orqali aniqlagan. Bu model ta'lim sohasida strategik qarorlar qabul qilish muhitini va raqobatdosh ustunlikka erishish uchun ideal natijani tushuntirishga qaratiladi.

Integratsiyalashuv, xalqaro reytinglar va davlatning OTMLar uchun moliyalashtirish hajmini kamaytirishi hamda xususiy OTMLarning ochilishi raqobat muhitini yaratadi. Bu esa ta'lim sohasida marketing strategiyalarini ishlab chiqishni rag'batlantiradi. Natijada OTMLar marketing strategiyasini ishlab chiqish uchun aniq strategiyani amalga oshirishlari lozim bo'ladi.

Raqobatda ustunlikka erishishga qaratilgan strategik yo'nalishlar G. Miotto va boshqa mualliflar tadqiqotlarida tizimlashtirilgan. Tadqiqotda davlat universitetlari uchun barqaror raqobatdosh ustunlikni qanday yaratish mumkinligini aniqlashga qaratilib, Ispaniyaning 47 ta turli universitetlaridan 509 nafar professor-o'qituvchini o'rganish orqali raqobatda ustunlik aniqlangan.

Ma'lumki, marketing strategiyasi an'anaviy tarzda "4P" modeliga asoslanadi. Ya'ni, bu — mahsulot, narx, taqsimlash va ilgari surishdir. 1981-yilda Booms va Bitner marketing miksi (marketing mix)ni yana qo'shimcha uchta "P" bilan to'ldirishni taklif qilgan. Xizmatlarga nisbatan ushbu "4P" modeli "7P"ga ko'paygan. U quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: jarayon, moddiylik va insonlar.

Prokopenko O. V. o'zining "Ta'lim xizmatlari marketingi" nomli monografiyasida ushbu kiritilgan qo'shimcha "3P" (jarayon, moddiylik va insonlar) bevosita ta'lim muassasasining ichki muhitiga bog'liqligini hamda oliy ta'lim muassasalari marketing strategiyasining aynan shu tarkibiy qismlariga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi.

"Ma'lumotlarga asoslangan marketing" kitobi muallifi Mark Jeffri kompaniyaning marketing samaradorligini baholash uchun "Marketing uchun muvozanatli ko'rsatkichlar tizimi" metodologiyasini taklif etadi. Ma'lumotlarga



asoslangan marketingni amalga oshirishning asosiy sharti — bu o'lchash va kuzatib borishdir. Muallif marketing faoliyatini o'lchash uchun odatdagi 50–100 ko'rsatkich o'rniga, miqdoriy baholash imkonini beruvchi 10 ta (yoki undan kam) ko'rsatkichni tanlash kifoya ekanligini ta'kidlaydi. Bu, tahlil qilish vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi va shunga mos ravishda tahlil natijalari asosida qarorlar qabul qilish samaradorligini oshiradi. Har bir ko'rsatkich eng yuqori marketing qiymatiga ega bo'lishi va o'lchanishi lozim.

Marketing tadbiridan oldin va keyin o'lchovlarni hisobga olish uning samaradorligini baholashga yordam beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, marketing ko'rsatkichlarini tanlash kompaniya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'lib, har bir holatda ular diqqat bilan tanlanishi lozim. Ishlaydigan samarali ko'rsatkichlar tizimini yaratish uchun, eng avvalo, marketing strategiyasining maqsadlarini aniq belgilash zarur. Belgilangan maqsadlarga asoslanib, harakatlar rejasi ishlab chiqiladi, eng muhim ko'rsatkichlar tanlanadi, ularni baholash metodologiyasi ishlab chiqiladi va ma'lumotlarni tahlil qilish usullari aniqlanadi. Shunday qilib, marketing maqsadlari va ularni amalga oshirish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan real, o'lchanadigan va noyob "Muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimi" yaratiladi. Bunday tizim va uning o'lchash metodologiyasi orqali marketing strategiyasining samaradorligini aniq va ishonchli darajada baholash mumkin bo'ladi.

Shemetova N. K. o'zining ilmiy tadqiqot ishida oliy ta'lim muassasasida marketing strategiyasini baholashning asosiy yo'nalishlari va marketing faoliyati samaradorligini monitoring qilish ko'rsatkichlarini taklif etadi.

Fayzullayeva N. S. "Ta'lim iqtisodiyoti va menejmenti" nomli o'quv qo'llanmasida bozor munosabatlariga o'tilishi va byudjetdan moliyalashtirishning yetarli emasligi oliy o'quv yurtlarini byudjetdan tashqari mablag'larni izlashga majbur qilayotganini ta'kidlaydi. Oliy o'quv yurti tijorat faoliyatining quyidagi shakllariga ega bo'lishi lozim: ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy va o'quv faoliyati. Ularni rivojlantirish, texnik jihatdan qo'shimcha jihozlash, eski tizimlarni yangilash va takomillashtirishni talab etadi.

Kahhorov O. S. o'zining ilmiy ishida oliy ta'lim muassasalari marketing faoliyati samaradorligini boshqarish bo'yicha marketing konsepsiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiiq etish masalalarini yoritgan. Tadqiqot jarayonida u OTM marketing boshqaruvining asosiy universal parametrlarini aniqlash va baholash bo'yicha taklif va tavsiyalar, shuningdek OTM faoliyati samaradorligini baholash va qiyosiy baholash algoritmini ishlab chiqqan. Tadqiqotga ko'ra, samaradorlikni baholash 4 ta mezon bo'lib, har bir mezon bo'yicha alohida ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan. Bu mezonlarga quyidagilar kiradi: hamkorlar bilan o'zaro aloqalar barqarorligi, iste'molchilarning sodiqligi, OTMning ishbilarmonlik faolligi va imidji. Bundan tashqari, OTM marketing samaradorligini baholash tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, u uch (3) guruhga — faoliyatni boshqarish, funksiyani boshqarish va talabni boshqarish tizimlariga ajratiladi. Har biri bo'yicha mos parametrlar va OTM marketing boshqaruvi samaradorligini qiyosiy baholash algoritmi ishlab chiqilgan. Ushbu ilmiy ishni o'rganish natijasida aniqlanishicha, OTM marketing boshqaruvi samaradorligini baholashda ichki va tashqi marketing faoliyatini baholash va har bir mezon bo'yicha alohida yechim topish tavsiya etiladi.

Sa'dullayeva G. S. xizmatlar bozorida ta'lim tizimini rivojlantirishning marketing strategiyalari bo'yicha tadqiqot olib borib, marketing ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qilishga yo'naltirilgan ta'lim sohasida marketing strategiyasiga aniqlik kiritadi. U, ta'lim xizmatlari sifatini tahlil qilish, ta'lim standartlarini xalqaro darajada unifikatsiyalash, o'quv jarayonlariga masofaviy ta'limni joriy etish hamda ichki va tashqi bozordagi raqobatchilarni aniqlash uchun SWOT-tahlil va chiziqli diskriminant tahlillarni birlashtirish asosida OTMning marketing strategiyasini shakllantirish uslubini ishlab chiqadi. Shuningdek, OTMning bozordagi ulushi, raqobatchilari, ta'lim xizmatlari turi va daromadlari bilan marketing vositalarining ta'sirini baholash imkonini beruvchi, iste'molchiga yo'naltirilgan strategik marketingga differentsial yondashuv asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish algoritmini taklif etadi. Shuningdek, ta'limda integrallashgan raqamli marketing strategiyasi vositalaridan bo'lgan CRM, SMM, PR va raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos usullariga aniqlik kiritadi. Bundan tashqari, OTMning maqsadli segmentlarini aniqlash va iste'molchilarning talabini ta'minlovchi marketing strategiyalarini shakllantirishga ta'sir etuvchi ichki va tashqi indikatorlar tizimini ishlab chiqib, ularni 38 ta ko'rsatkichga bo'ladi va ularning qo'llanish tartibini ko'rsatadi. OTMda marketing faoliyatini shakllantirish bo'yicha o'rta va uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqadi. Ta'lim, fan va ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash maqsadida "Universitet 3.0" modelini ishlab chiqadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'lim xizmatlarining o'ziga xosligini yaqqolroq tasavvur etish uchun, shuningdek, o'qitishning xizmat turi sifatidagi alohida va muhim jihatlarni ko'rib chiqish zarur.

Misol uchun, ta'lim xizmatining ta'lim muassasasi faoliyati marketing xizmatini tashkil etishda albatta hisobga olinishi shart bo'lgan ayrim asosiy o'ziga xos qirralarini ko'rib chiqamiz:

- Birinchidan: ta'lim xizmati hissiyotdan tashqaridaligi bilan ajralib turadi, ya'ni uni sotib olmaguncha va undan foydalana boshlamaguncha oldindan ushlab ko'rish, tinglash, his qilish va baholashning iloji yo'q.



- Ikkinchidan: taqdim etish va iste'mol qilish jarayonlarini bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Boshqa tovarlar sotib olinganidan keyin iste'mol qilinadi, ammo ta'lim xizmati esa taqdim etilgan vaqtning o'zida iste'mol qilinadi. Ta'lim xizmatini ajratib turuvchi asosiy xossalardan biri shundaki, uni taqdim etish jarayonida xizmatni yetkazib beruvchi bilan iste'molchi o'rtasida chambarchas munosabat vujudga keladi.

- Uchinchidan: ta'lim kurslari va dasturlari xizmat turi sifatida nomutanosibligi bilan, sifatining barqaror emasligi bilan ajralib turadi. Uning asosiy ko'rsatkichlari ko'plab omillar va tarkib toptiruvchilarga bog'liq. Masalan, aynan bir o'quv kursidagi o'qitish sifati — uning mazmuni va uslubiga ko'ra, ushbu kursni o'tkazayotgan muallimning tayyorgarlik darajasi, tinglovchilar guruhining tarkibi va ishtiyoqi, hattoki dars jadvali va yilning ta'lim o'tkazilayotgan fasliga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish — juda qiyin va ko'p vaqt talab qiladigan, har tomonlama tadqiqotlarni amalga oshirishni talab qiladigan jarayondir. Bozor talabi doimo o'zgaruvchan bo'lib, texnika va texnologiyalarning takomillashuvi, bozor iqtisodiyotiga turli innovatsion texnologiyalarning kirib kelishi, internetning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi marketologlarga juda katta mas'uliyat yuklamogda.

Bu esa raqobat sharoitida oliy ta'lim muassasalarining bozor iqtisodiyoti talablariga jadal sur'atlarda moslashishi va strategiyalarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Strategiyalarni tanlashda marketingda dolzarb hisoblangan va kelgusidagi maqsadlarni belgilashda hal qiluvchi omil — bu ma'lumotlardir. Chunki ma'lumotlar qanchalik aniq va ishonchli bo'lsa, strategiyalarni belgilashdagi ahamiyati shunchalik yuqori va haqiqatga yaqin bo'ladi.

Shu sababli, ko'plab tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini baholashda statistik tahlil va monitoring ko'rsatkichlari keng qo'llaniladi. Chunki statistik tahlil ma'lumotlar o'rtasidagi aloqalar va qonuniyatlarni ochib berishga xizmat qiladi. Marketing tadqiqotlarida hosil bo'lgan natijalarni, iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish usullarini tahlil qilishda statistik usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Statistik tahlil uslublaridan foydalanish o'zgaruvchilar o'rtasidagi aloqalarning mavjudligini aniqlash, kelgusida marketing strategiyalari bo'yicha zarur qarorlar qabul qilishga, raqobat sharoitida ta'lim muassasasining reytingini oshirishga va ta'lim xizmatlari bozorida munosib o'rin egallashga yordam beradi.

Shu bois, tadqiqotning maqsadi — oliy ta'lim tizimida uning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan marketing strategiyalarini shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Mazkur maqolada metodologiyada statistik tahlil usullaridan keng foydalanilgan. Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti misolida statistik tahlil va uning kelgusida marketing strategiyalarini belgilashdagi o'rni ko'rsatilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim xizmatlari bozori o'zining dinamik rivojlanishi, iste'molchilar talabi o'zgaruvchanligi hamda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ta'limga katta e'tibor qaratilishi bilan ajralib turadi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyatining samarali tashkil etilishi ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omiliga aylangan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2020–2024-yillar davomida respublikada oliy ta'limga qamrov darajasi 18 foizdan 38 foizgacha oshgan. Bu ko'rsatkich 2021-yilgi "O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" doirasida amalga oshirilgan tub islohotlar, jumladan, nodavlat OTMLar ochilishi, oliy ta'limda xorijiy universitetlar filiallari sonining ortishi va abituriyentlar uchun qulayliklar yaratilgani bilan izohlanadi.

Shuningdek, 2023-yil yakunlariga ko'ra, mamlakatda faoliyat yuritayotgan 80 dan ortiq oliy ta'lim muassasasidan 25 tasi nodavlat shakldagi ta'lim tashkilotlari hisoblanadi. Ushbu nodavlat OTMLar zamonaviy marketing yondashuvlarini (digital marketing, CRM, SEO, kontent-marketing, SMM) faol joriy etgani bois abituriyentlar sonini jalb qilish bo'yicha ba'zi davlat universitetlaridan ustun kelmoqda. Masalan, Toshkentdagi nodavlat universitetlardan biri 2022–2023-o'quv yilida 5 800 nafar talabani qabul qilgan, bu esa mazkur universitetning agressiv va professional marketing strategiyasini qo'llaganini ko'rsatadi.

Marketing faoliyatini samarali yo'lga qo'ygan OTMLar quyidagi natijalarga erishgan:

- Brend tan olinishi oshgan: veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar, videoroliklar va auditoriyaga moslashtirilgan kontent orqali iste'molchilar e'tiborini jalb qilishga muvaffaq bo'lgan.

- Xalqaro talabalarni jalb qilish: marketing strategiyasi doirasida ingliz tilida alohida sahifalar ochilgan, qabul va grant shartlari soddalashtirilgan. Natijada, 2024-yilda O'zbekistonga o'qish uchun kelgan xorijiy talabalar soni 6 200 nafardan oshgan, bu ko'rsatkichning 21 foizi nodavlat OTMLar hissasiga to'g'ri keladi.

- Bitiruvchilarning ishga joylashish ko'rsatkichi yaxshilangan: marketing bo'limlari bitiruvchilar bilan aloqa platformalarini shakllantirgan, bu esa OTM imidjiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Statistik tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, samarali marketing strategiyasi joriy qilingan OTMLarda abituriyentlar soni o'rtacha 25–40 foizgacha, ta'lim xizmatlaridan tushgan daromad esa 35–50 foizgacha oshgan. Shu bilan



birga, marketing faoliyatining past darajada tashkil etilgan muassasalarda abituriyentlar sonining kamayishi, bitiruvchilarning ishga joylashishidagi uzilishlar, ijtimoiy tarmoqlarda OTM faoliyati haqida salbiy fikrlarning ko'payishi kuzatilmoqda.

2023-yilda Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamkorligida tuzilgan hisobotda keltirilishicha, OTMlarning 60 foizi marketing bo'limiga ega bo'lsa-da, ularning atigi 27 foizi strategik yondashuv asosida ishlaydi. Bu esa marketing faoliyatini rivojlantirishda metodik baza, malakali mutaxassislar va zamonaviy vositalarga ehtiyoj borligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi natijalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Oliy ta'lim xizmatlari bozorida barqaror o'sish kuzatilmoqda, bu esa OTMlar o'rtasida raqobatni kuchaytirmoqda.
- Samarali marketing strategiyalari ta'lim sifati, abituriyentlar oqimi, xalqaro hamkorlik va daromadlar strukturasi bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.
- Marketing bo'limining ichki imkoniyatlari (xodimlar malakasi, byudjet, tahlil vositalari) OTMning brend pozitsiyasi va imidjini belgilovchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.
- Marketing faoliyatini axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish raqobat ustunligini ta'minlaydi: bu CRM, raqamli reklama, ijtimoiy tarmoqlar orqali auditoriyani segmentatsiyalash, real vaqt rejimida monitoring yuritish imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida oliy ta'lim muassasasining marketing faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Marketing faoliyati samaradorligini baholashdagi asosiy masalalardan biri — bu marketing bo'limining oliy ta'lim muassasasi tashkiliy tarkibidagi o'rni va roli, shu jumladan boshqa tarkibiy bo'linmalar bilan o'zaro munosabatlarining faoliyat yo'nalishlari ro'yxatini, ularning to'liqligi va murakkabligini aniqlashdan iboratdir. Shunga muvofiq, marketing faoliyatini tashkil etish samaradorligini quyidagi mezonlar yig'indisi orqali baholash maqsadga muvofiq: birinchidan, marketing bo'limining professional faoliyatni amalga oshirishi — raqobatchilarni o'rganish, iste'molchilarni tadqiq etish, ta'lim faoliyatini boshqarish, ta'lim xizmatlari va dasturlarining yangi g'oyalarini ishlab chiqish, xizmatlarga narx belgilash, ta'lim xizmatlarini ilgari surish va samarali sotuvni tashkil etish, marketing strategiyasini ishlab chiqish; ikkinchidan, marketing bo'limining ichki muhiti — marketing bo'limi xodimlarining malakasi va professionalligi, marketing xarajatlari tarkibi, marketing bo'limini moliyalashtirish usullari. Oliy ta'lim muassasasida marketing boshqaruvini tashkil etishni ob'yektiv baholash, marketing bo'limining mavqeini va uning ishbilarmonlik faolligi darajasini aniqlash imkonini beradi.

Oliy ta'lim muassasalarida marketingni boshqarishni tashkil etishga doir hozirgi shakllangan yondashuvlar quyidagilardan iborat: o'quv jarayonini boshlash, o'tkazish va yakunlash davrida xaridor va ta'lim xizmati hamda mahsulotning iste'molchisi sifatida iste'molchi rolining va marketing pozitsiyasining dinamikasi; strategik segmentatsiya matritsasi va turli o'lchamdagi ta'lim bozorlaridagi talab xususiyatlari; universitet marketing faoliyatini marketingni boshqarish rejimida tashkil etish (subyektlar, obyektlar, usullar); zamonaviy universitet marketingini boshqarishning axborot funksiyasi (ta'rifi, obyektlari, mazmuni va amalga oshirilishi); universitetning marketing axborot tizimi (o'quv mahsulotini taqdim etish uchun uzoq operatsion sikl sharoitida amalga oshirish va ishlash xususiyatlari); universitet marketingini boshqarish jarayonida o'zaro ta'sir o'tkazish potensialiga ega bo'lgan maqsadli mijozlar guruhlar uchun marketing tadqiqotlarini tashkil etish.

Universitetda bitiruvchilar segmenti uchun marketing faoliyatini tashkil etish — bo'lajak ta'lim oluvchilarning alohida ehtiyojlari, motivatsiyasi va xatti-harakatlarini e'tiborga olgan holda, moslashtirilgan yondashuvni o'z ichiga oladi. Ushbu segmentni samarali yo'naltirish va jalb qilish uchun strategik yo'nalishlar sifatida quyidagilar tavsiya etiladi: bitiruvchilar segmentatsiyasi, noyob qiymat taklifini ishlab chiqish, karyera natijalari, moslashuvchanlik va qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlar. Tashkiliy masalalar orqali hamkorlik yo'nalishlari sifatida esa quyidagilar belgilanadi: abituriyentlar bilan ishlash, raqamli marketing strategiyalaridan foydalanish, oflayn marketing faoliyatini amalga oshirish, qabul bo'yicha yordam va ko'rsatmalarni yo'lga qo'yish zarurati.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida marketing menejmentining mohiyati iste'molchilarning xatti-harakatlarini uning barcha bosqichlarida, shu jumladan ta'lim muassasalariga bo'lgan talabni shakllantirishdan boshlab, yakuniy jarayonlar — bitiruvchilar bilan ishlashgacha bo'lgan davrni to'liq qamrab olishi lozim. Bugungi sharoitda zamonaviy tashkilotlarning marketing menejmenti, avvalo, makro va mikro muhitning o'zgaruvchan marketing omillari tizimida korporativ subyektning raqobatbardoshligi va raqobatbardosh barqarorligiga qaratilgan bo'lib, bu yo'nalishda korporativ raqobatbardoshlik yadrosini shakllantirish, yaxlit ijtimoiy va axloqiy marketing hamda korporativ yondashuvni hisobga olgan holda, marketing tizimida uzoq muddatli, muntazam va o'zaro manfaatli munosabatlar rivojlanishini ta'minlaydigan





креатив marketing vositalarini ishlab chiqish barcha ta'lim oluvchilar segmenti uchun alohida yondashuvda tashkil etilishi zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: “Xalq so'zi” gazetasi, 2020-yil 25-yanvar. Manba: [www.press-servise.uz](http://www.press-servise.uz).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–2909-sonli qarori. – Toshkent, 2017-yil 21-aprel. Manba: <http://press-servis.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining “OTMlarida marketing xizmati faoliyatini takomillashtirish, bitiruvchilarni ishga taqsimlash jarayoni nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 48-sonli buyrug'i (1,2-ilovalar). – Toshkent, 2007-yil 10-mart. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
4. Дойль П. Маркетинг-менеджмент и стратегии. – СПб.: Питер, 2002. – С. 55.
5. Pearce J. A., Robinson R. B. Strategic Management [Стратегический менеджмент]. – 12 ed. – СПб.: Питер, 2013. – 560 с. – С. 16.
6. Алмакучуков К. М. Технологии управления маркетингом в вузе // Высшее образование Кыргызской Республики. – 2008. – № 2/12. – С. 44–50.
7. Axunova G. O'zbekistonda ta'lim xizmatlari marketingi muammolari: Monografiya. – Toshkent, 2005. – 244 b.
8. Nazarova D. Ta'lim xizmatlari marketingida axborotni boshqarish // Jamiyat va boshqaruv. – 2010. – № 3. – B. 65–67.
9. Набиев Д. Совершенствование управления маркетингом образовательных услуг в условиях модернизации экономики. Автореф. ... докт. экон. наук. – Ташкент, 2009. – 48 с.
10. Ochilov A. O. Malakali kadrlar tayyorlashda marketing xizmati // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2007. – № 3. – B. 56–58.
11. Очилов А. О. Маркетинг в сфере высшего образования // Экономика и финансы. – Москва, 2009. – № 3 (156). – С. 64–65.
12. Kotler & Fox. – 1995. – 44 b.
13. Abdullaev O. va boshqalar. Marketing strategiyasining asosiy yo'nalishlari. – T.: NIMP, 1999. – 25 b.
14. Kahhorov O. S. Oliy ta'lim muassasalari marketing faoliyati samaradorligini boshqarish // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. – № 6, 2019-yil noyabr–dekabr. – B. 141.
15. Раджабова Г. У. Защита прав частных предпринимателей и роль малого бизнеса в инновационной экономике // Web of Scholar. – 2018. – Т. 3. – № 3. – С. 35. [www.scientificprogr](http://www.scientificprogr).
16. Котлер Ф. Маркетинг 4.0. Разворот от традиционного к цифровому. Технологии продвижения в интернете. – М.: Эксмо, 2017. – 103 с.
17. Котлер Ф. Маркетинг менеджмент. – СПб.: Питер, 2004. – 496 с. – С. 25.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---